The Role of Psychological Support in the Formation of Students' Socio-Emotional Competence in Preschool Education	622
Kamoliddinova Diyora Jaloliddin qizi	
Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi	626
Xudoynazarova Moxira Xakimovna	
Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarda tanqidiy fikrlash qobiliyatini metodlar orqali rivojlantirish	629
Ro'zmetov Ravshan Sharipbayevich	
Bo'lajak tarbiyachilarda muloqot madaniyatini tarbiyalash	633
Uljayeva Sevara Abdirazzoqovna	
Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan zamonaviy darsliklar tuzilishi va mazmuni	638
Po'latova Marjona Inomjon qizi	
STEAM ta'lim texnologiyasini maktabgacha ta'limida qo'llash bo'yicha xorijiy tajribalar	643
Saidova Nigora Olimovna, Pirmatova Zaynabxon Elmurod qizi	
Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish	646
Ergasheva Sunbula Baxtiyor qizi	
O'quvchilarda ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning shakllanishi va uning dolzarb muammolari	650
Gaparova Mastona Safaraliyevna	
Adabiyot darslarini o'qitishda 5E modelidan foydalanish	654
Abdiraupova Zarnigor Abdinabi qizi	
Oliy ta'limda kompetensiyaga asoslangan o'qitish modellari	657
Ernazarov Alisher Ergashovich, Chinqulova Gulmehra	
Traditional Techniques and Modern Approaches in the Production of National Costumes	665
Jabborova Dilshoda Xolmamat qizi	
Pedagogik platformalar va kognitiv-didaktik yondashuvlar integratsiyasi yordamida talabalarning kasbiy tayyorgarlik tizimini yangi bosqichga olib chiqish	668
Raxmonov Omadjon Mamasidiq o'g'li	
Aqli zaif o'quvchilarda disgrafiyaning bartaraf etishda assistiv texnologiyalarning ahamiyati	672
Usmonov Umid Allayorovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish	676
Adizova Nigora Baxtiyorovna, Akbarova Sarvinovna Sadriiddinova	
Tadqiqotchilik kompetentligi pedagogik muammo sifatida	681
Ergashev Nozim Nabiyeovich	
Teaching Reading to Young Learners: Essential Principles for Primary School Teachers	684
Toshtanova Maftuna Xamidjon qizi	
Tarmoq qurilmalari va tizimlarini boshqarish modulini o'qitish orqali o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash	687
Karimova Charos Abduhalim qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki nutq rivojlanishining psixolingvistik asoslari	691
Musayeva Nafisa Kudratovna, Muxammadova Saodat Muzaffar qizi	
"Kasbiy ma'naviyat" fani bo'lajak pedagoglarda ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni intensiv rivojlantirish omili	695
Ismoilov Yoqubjon Quchqarboyevich	
Yapon tilini o'rgatishda talabalarning gapirish ko'nikmasini rivojlantirish: tamoyillar, bosqichlar va innovatsion usullar	699
Baqoyev Navro'zjon Abdullo o'g'li	
Texnologik ta'lim jarayonida ixtirochilik va loyihalashtirish kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari	705
Zokirova Nargiza Akbarjonovna	
Bo'lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning psixologik asoslari	710
Eshnazarova Farida Jo'raqulovna	
Ta'lim islohotlari sharoitida genderga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari	714
Yaxyayeva Sojida Abduraximovna	
Ko'rsatish olmoshlarining vazifaviy uslublarda qo'llanilishi	718
Berdiyeva Malika	
Nazorat turlari orqali o'quvchilarning savodxonlik kompensatsiyasini shakllantirish	721
Xoldarova Irodaxon Valijonovna, Jo'rayeva Shodiya Kenjaali qizi	



Zamonaviy boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida o'quvchilarda lug'atlar bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	726
Buvajonova Mohiraxon Usmonali qizi	
Boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari: innovatsion taraqqiyot, metodik yangiliklar va istiqbollari	731
Nazarova Mohigul Akmalovna	
Maktab va pedagogika institutlari o'rtasida amaliyotga yo'naltirilgan dual ta'lim modelini takomillashtirish: muammolar va yechimlar	736
Arabova Muxiba Bazarovna	
Помощь советского государства в подготовке кадров для арабских государств	740
Хомидова Камола	
Место Узбекистана в развитии культурной сферы Советского союза во второй половине XX века ..	744
Бекназаров Собиржон	
Toshkent xalqaro kinofestivallarining Arab davlatlari va Afrika mamlakatlari kinosan'atida tutgan o'rni	748
Sharifov Shoxjaxon To'liqinjon o'g'li	
Ekonometrika fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari va istiqbollari	752
Bobonorova Qundizxan Quralbay qizi	
O'quvchi faolligini oshirishda jadid maktablari tajribasi va faol ta'lim metodlarining integrativ qo'llanilishi ..	759
Bobonazarov Orif Abrayqulovich	
Влияние гендерной лингвистики на развитие психолингвистических исследований в Узбекистане ..	764
Мусаева Елена Казимовна	
Psixik rivojlanishni tashxislashda psixofiziologik usullardan foydalanish samaradorligi	767
Sh. L. Rahmonova	

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA BO'LAJAK TARBIYACHILARNING PEDAGOGIK MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Ergasheva Sunbula Baxtiyor qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi

(Maktabgacha talim yo'nalishi) magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kun talablari va raqamli texnologiyalar asrining ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda, raqamli texnologiyalarning jamiyat hayotida tobora muhim ahamiyat kasb etib borayotgani asoslab berilgan. Zamon bilan hamnafas bo'lgan, kasbiy jihatdan yetuk hamda pedagogik muloqot madaniyatiga ega bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini tayyorlashda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Maqolada bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan metodlar va amaliy tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek, jadal sur'atlarda rivojlanayotgan bugungi sharoitda raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimidagi ahamiyati nihoyatda muhim ekanligi ilmiy asosda ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, pedagogik muloqot madaniyati, tarbiyachi, mediasavodxonlik, metodika, bo'lajak tarbiyachi.

Abstract: This article addresses the effective use of digital technologies in the training of future preschool educators in accordance with the demands of the modern digital era. It highlights the growing importance of digital technologies as an integral component of professional pedagogical activity and a key factor in developing pedagogical communication culture. The study presents methods and practical recommendations aimed at enhancing communicative competence and media literacy among future educators. In addition, the article emphasizes the exceptional significance of digital technologies within the rapidly evolving contemporary educational environment.

Key words: digital technologies, pedagogical communication culture, educator, media literacy, methodology, future educator.

Аннотация: В статье на основе требований современного цифрового общества рассматриваются вопросы эффективного использования цифровых технологий в процессе подготовки будущих воспитателей дошкольных образовательных организаций. Подчеркивается, что цифровые технологии становятся неотъемлемой частью профессиональной педагогической деятельности и важным фактором развития культуры педагогического общения. В работе представлены методы и практические рекомендации, направленные на формирование коммуникативных навыков и медиаграмотности будущих педагогов. Также обоснована исключительная значимость цифровых технологий в условиях стремительного развития современной образовательной среды.

Ключевые слова: цифровые технологии, культура педагогического общения, воспитатель, медиаграмотность, методика, будущий воспитатель.

KIRISH

Pedagogik muloqotga tayyorlik muvaffaqiyatli pedagogik faoliyatning eng muhim shartlaridan biridir. Pedagogik muloqotga tayyorlik quyidagi shakllarni o'z ichiga oladi: pedagogik muloqot asoslari, vazifalari, bezaklari, mazmuni, mohiyati va tuzilishini bilish; muloqotni tashkil etish va boshqarish, shaxsning ruhiy holatini, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish; o'qituvchining axloqiy va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish.

Barcha bilimlar, ko'nikmalar, qobiliyatlar va shaxsiy fazilatlar pedagogik muloqot madaniyatini tavsiflaydi. Bu esa samarali pedagogik muloqotni va ta'lim jarayonini yuqori professional darajada tashkil etish hamda amalga oshirish imkonini beradi. Pedagogik muloqot madaniyati butun kasbiy-pedagogik madaniyatning ajralmas qismi hisoblanadi. O'qituvchi shaxsining insonparvarlik yo'nalishi ta'lim jarayonida qulay psixologik muhit yaratishda namoyan bo'ladi.



Pedagogik muloqot madaniyati ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi: xushmuomalalik; nutq madaniyati; og'zaki bo'lmagan aloqa vositalarini (pantomima, yuz ifodalari) o'zlashtirish qobiliyati; aqliy faoliyatni o'z-o'zini tartibga solish; pedagogik xushmuomalalik.

Muloqot – bu hamkasblar, bolalar va ota-onalar bilan muntazam ravishda aloqada bo'lish zarurati bilan belgilanadigan ajralmas sifatdir. U aloqalarni o'rnatishda, hissiy holatda, faoliyatdan quvonch olishda, bolaga qiziqish bildirishda, o'yinlar jarayonini hamda barcha holatlarni his-tuyg'ular orqali anglashda namoyon bo'ladi.

Xushmuomalalik quyidagi fazilatlar bilan chambarchas bog'liq: qulaylik, yengillik, soddalik, samimiylik, do'stona munosabat, sezgirlik, noqulay vaziyatlarda sabr-toqatlilik, vazminlik va hazil tuyg'usi, talabchanlik, hurmat hamda xulq-atvorning yetuk namoyon bo'lishi.

Muomala shaxsni turli sharoit va vaziyatlarda anglash hamda o'rganishga imkon beradi. Pedagog o'quvchilar bilan muomala qilarkan, jarayonning eng mayda jihatlarini ham anglab olishga qodir bo'ladi. Ushbu jihatlar sirtidan unchalik ahamiyatli ko'rinmasligi mumkin, biroq inson shaxsida kechayotgan, uni to'liq tushunish uchun nihoyatda muhim bo'lgan ichki jarayonlarning namoyon bo'lish belgilari sifatida pedagog shaxsining hal qiluvchi rolini ko'rsatib beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib, bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, G. Tashmatova tomonidan 2025-yilda olib borilgan tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik mahoratini rivojlantirishda samarali vosita sifatida asoslangan. Muallif raqamli muhit pedagogning nafaqat metodik bilimlarini, balki uning pedagogik muloqot jarayonidagi faolligi va moslashuvchanligini ham oshirishini ilmiy dalillar bilan ko'rsatib beradi. Shuningdek, M. A. G'iyosova 2025-yilda bo'lajak tarbiyachilarda pedagogik madaniyatni rivojlantirishni muhim pedagogik muammo sifatida talqin etib, unda muloqot madaniyati yetakchi komponentlardan biri ekanini ta'kidlaydi.

Pedagogik muloqot madaniyatining nazariy asoslari va psixologik jihatlar masalasi mahalliy olimlar tadqiqotlarida keng yoritilgan. R. N. Nazimov 2024-yilda pedagogik muloqot madaniyati tushunchasini kasbiy faoliyat samaradorligini belgilovchi asosiy omil sifatida izohlaydi. V. M. Karimova tomonidan 2018-yilda chop etilgan asarda pedagogik muloqotning psixologik mexanizmlari, tarbiyachining shaxsiy fazilatlar va kasbiy madaniyati o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ochib berilgan. J. G'. Yo'ldoshev 2017-yilda pedagogik mahorat tarkibida muloqot madaniyatining yetakchi o'rni borligini qayd etib, tarbiyachining nutqiy va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi.

So'nggi tadqiqotlarda mediasavodxonlik va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Z. X. Raximova tomonidan 2025-yilda olib borilgan ilmiy tadqiqotda mediasavodxonlik bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishning muhim omili sifatida asoslangan. M. Rasulova 2022-yilda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligida muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatib beradi. Shuningdek, A. A. Xodjayev, G. Jalolova va M. Raxmatova hamda D. To'xtayeva va S. Nazarova tadqiqotlarida pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish, uning bosqichlari va maktabgacha ta'lim muhitidagi o'ziga xos jihatlar ilmiy asosda yoritilgan. Ushbu adabiyotlar bo'lajak tarbiyachilarda pedagogik muloqot madaniyatini raqamli texnologiyalar yordamida rivojlantirish masalasining dolzarbligini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqola bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o'rni va samaradorlik natijalarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotning nazariy asosida xorijiy va mahalliy olimlarning raqamli texnologiyalar vositasida muloqot madaniyatini rivojlantirishga doir amalga oshirgan ishlari tahlil qilindi.

Mazkur tadqiqotda olinran ilmiy materiallar asosida olimlar tomonidan qo'llanilgan metodlar o'rganildi hamda ularning hozirgi davrda qo'llanilayotgan metod va uslublar bilan taqqoslanishi amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-taqqoslash metodi asosiy metod sifatida qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda zamonaviy ta'lim jarayonida pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Jadal sur'atlarda rivojlanayotgan hozirgi davrda axborot oqimi keskin ortib bormoqda. Raqamli texnologiyalar hayotimizning ajralmas qismiga aylanib borayotgan bir sharoitda bugungi zamon pedagoglarining mediasavodxonligi nafaqat o'quv-tarbiya jarayonida, balki ularning kasbiy mahorati va bilim darajasini belgilovchi muhim omil sifatida ham namoyon bo'lmoqda.

Bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda, bo'lajak tarbiyachilarda muloqot madaniyatini rivojlantirishda mediasavodxonlik imkoniyatlaridan foydalanish, ulardagi muloqot jarayonida uchraydigan kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etishga ko'maklashuvchi dastur yaratish, shuningdek, hozirda mavjud elektron qo'llanmalardan foydalanish orqali bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqotini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning ob'ekti – bo'lajak tarbiyachilarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish jarayoni. Tadqiqotning predmeti esa ushbu murakkab jarayonda raqamli texnologiyalar vositasida muloqot madaniyatini shakllantirishdan iborat.

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak tarbiyachilarda pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish jarayonida raqamli texnologiyalar vositasida pedagogik muloqotdagi mavjud kamchiliklarni aniqlash, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun samarali dastur yaratish hamda uni ilmiy asosda ishlab chiqib, ommaga taqdim etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Raqamli texnologiyalar vositalari yordamida pedagogik muloqot madaniyatining nazariy asoslarini o'rganish;
2. Bo'lajak tarbiyachilarda pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning ta'sirini tahlil qilish;
3. Pedagogik jarayonga raqamli texnologiyalar vositalaridan olingan manbalarni integratsiya qilish yo'llarini aniqlash;
4. Amaliy mashg'ulotlar, interaktiv metodlar va refleksiv yondashuvlar asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Bo'lajak tarbiyachilar zamonaviy sharoitda bilim olish, muloqot qilish va fikr almashish jarayonlarini nafaqat an'anaviy auditoriyada, balki raqamli muhitda ham amalga oshirishlari zarur. Shu bois, bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini raqamli texnologiyalar muhitida shakllantirish va rivojlantirish pedagogik fanlarning eng dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylanganini ta'kidlash o'rinlidir.

Pedagogik muloqot madaniyati va mediasavodxonlik masalalariga bag'ishlangan xalqaro va mahalliy adabiyotlar tahlili ushbu soha ikki asosiy yo'nalishda rivojlanayotganini ko'rsatadi: bir tomondan, mediasavodxonlik nazariyasi va raqamli medialarning individual hamda ijtimoiy ta'siri; ikkinchi tomondan esa pedagogik amaliyot va ta'lim texnologiyalari orqali kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan tadqiqotlar.

Xorijiy adabiyotlarda mediasavodxonlikning nazariy asoslari batafsil yoritilgan. Jumladan, media va kommunikatsiya nazariyalari, mediaviy hokimiyat, axborot makonining tuzilmalari haqida klassik qarashlar, shuningdek, zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan mediasavodxonlik ta'limi konsepsiyalari alohida o'rin egallaydi. Xalqaro tadqiqotchilar mediasavodxonlikni nafaqat texnik ko'nikma, balki tanqidiy tafakkur, axborot etikasi va raqamli fuqarolik (digital citizenship) bilan uzviy bog'liq jarayon sifatida talqin etishadi. Bundan tashqari, interaktiv metodlar, medialoyihalar va refleksiv mashg'ulotlarning o'quvchilar hamda talabalarning kommunikativ mahoratini rivojlantirishdagi samaradorligi bo'yicha empirik dalillar keltirilgan. Shu bilan birga, tadqiqotlarda ijtimoiy media platformalarining pedagogik imkoniyatlari va xavf-xatarlari ham atroflicha tahlil qilingan.

Mahalliy, ya'ni O'zbekiston va Markaziy Osiyo olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda pedagogik muloqot madaniyati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish hamda talabalar orasida raqamli madaniyatni rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratilgan. Ushbu tadqiqotlarda ta'lim jarayonida texnologik vositalardan foydalanish, o'qituvchilarning mediakompetensiyalarga ehtiyoji hamda oliy ta'lim muassasalarida mediasavodxonlik modullarini joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar taklif etilgan. Mahalliy tadqiqotlarning aksariyati amaliy yo'nalishga ega bo'lib, darsliklar, metodik qo'llanmalar va seminarlar orqali kontekstga mos, ya'ni milliy madaniyat hamda ta'lim tizimi xususiyatlarini inobatga olgan yechimlarni taklif etadi.

Biroq adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ayrim muhim bo'shliqlar mavjud. Xususan, ko'plab xorijiy tadqiqotlar umumiy nazariy va empirik natijalarni taqdim etsa-da, mahalliy kontekstga – o'zbek tilidagi o'quv dasturlari, milliy madaniy-me'yoriy talablar va oliy ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirilgan metodik yechimlar yetarli emas. Pedagogik muloqot madaniyati va mediasavodxonlikni integratsiyalashgan holda baholash uchun standartlashtirilgan baholash vositalari va mezonlar cheklangan. Shuningdek, refleksiv treninglar, medialoyihalar va ijtimoiy media amaliyotining talabalarning muloqot madaniyatiga ta'sirini aniqlash bo'yicha uzoq muddatli va eksperimental tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmagan. Muallif tomonidan ko'tarilgan masalaning dolzarbligi aynan ushbu bo'shliqlarni bartaraf etishga qaratilgan.



Xususan, mazkur maqola mediasavodxonlik komponentlarini pedagogik muloqot madaniyatiga integratsiyalashgan holda yondashadi, nazariy va amaliy jihatlarni uyg'unlashtiradi hamda kontekstga mos metodik paketni – interaktiv topshiriqlar, medialoyihalar va reflektiv treninglarni hamda ularni baholash uchun aniq mezonlarni taklif etadi. Shuningdek, amaliy-eksperimental va metodologik asosga tayangan holda O'zbekiston oliy ta'lim muhitida mediasavodxonlikni tatbiq etishning samaradorligini baholashni maqsad qiladi. Natijada, mavjud adabiyotlar bazasidan kelib chiqib, maqola nazariy bilimlarni mahalliy pedagogik amaliyot bilan bog'lash, baholash mexanizmlarini takomillashtirish va aniq metodik yechimlarni taklif etish orqali mavzuga konstruktiv hissa qo'shadi. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonida mediasavodxonlikni samarali integratsiya qilish va talabalarda pedagogik muloqot madaniyatini barqaror shakllantirish uchun muhim ilmiy-amaliy asos yaratadi ^[2].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, mediasavodxonlikning ta'lim jarayoniga samarali integratsiyasi talabalarda nafaqat kommunikativ madaniyatni, balki axborot madaniyati, raqamli mas'uliyat va kasbiy etika tamoyillarini ham shakllantiradi. Shunday ekan, mediasavodxonlikni rivojlantirish bugungi globallashuv sharoitida pedagogik muloqot madaniyatini yuksaltirishning muhim sharti sifatida qaraladi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari mediasavodxonlikni pedagogik muloqot madaniyati bilan uzviy bog'liq holda o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Talabalarda ushbu ikki jihat uyg'un rivojlanganda, ularning raqamli axborot makonida madaniyatli, axloqiy va samarali muloqot olib borish qobiliyati sezilarli darajada oshadi. Shu bois, maqolada ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar oliy ta'lim tizimida pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirishda muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ularni o'quv dasturlariga integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir.

Mediasavodxonlik talabalarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi. U nafaqat texnik bilimlarni, balki axborotga nisbatan madaniy, axloqiy va tanqidiy yondashuvni ham rivojlantiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mediasavodxonlik talabalarda pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirishning samarali vositasidir. U axborotni tanqidiy tahlil qilish, axborot etikasi, raqamli madaniyat va ijtimoiy mas'uliyat kabi kompetensiyalarni shakllantirish orqali talabalarning kommunikativ va madaniy rivojlantirishiga xizmat qiladi ^[2].

Bo'lajak tarbiyachilarda pedagogik madaniyatni raqamli texnologiyalar orqali rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim va dolzarb vazifalaridan biridir. Ushbu jarayon nafaqat tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini oshirish, balki ta'lim sifatini yaxshilash hamda jamiyatning ijtimoiy-madaniy rivojlanishiga munosib hissa qo'shish imkonini beradi. Nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, oldingi va hozirgi davrda ishlab chiqilgan pedagogik mahorat hamda pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirishda o'z samarasini ko'rsatgan uslublarni mustahkamlash, shuningdek, kasbiy motivatsiyani oshirish orqali mazkur muammolarni bartaraf etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tashmatova, G. (2025). Raqamli texnologiyalar muhitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy pedagogik mahoratini oshirish imkoniyatlari. *New Renaissance*.
2. Raximova, Z. X. (2025). Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishda mediasavodxonlikning ahamiyati. *Maktabgacha va maktab ta'limi: pedagogika-psixologiya*, (11), 944–948.
3. G'iyosova, M. A. (2025). Bo'lajak tarbiyachilarda pedagogik madaniyatni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida. *Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation*.
4. Nazimov, R. N. (2024). Pedagogik muloqot madaniyati tushunchasi. *Iqro*.
5. Karimova, V. M. (2018). Pedagogik muloqot psixologiyasi. O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
6. Yo'ldoshev, J. G'. (2017). Pedagogik mahorat. O'qituvchi.
7. Xodjayev, A. A. (2020). Maktabgacha ta'limda pedagogik muloqot madaniyati. *Fan va texnologiya*.
8. Jalolova, G., & Raxmatova, M. (2021). Pedagogik psixologiya. *Iqtisod-Moliya*.
9. Rasulova, M. (2022). Bo'lajak tarbiyachilarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish. Ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar, (3).
10. To'xtayeva, D., & Nazarova, S. (2021). Muloqot madaniyati va uning shakllanish bosqichlari. *Maktabgacha ta'lim*, (4).

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.